



## DESCRIPTION OF THE 1910 POPULATION CENSUS DOCUMENTS IN THE KHANATE OF KHIVA

**Jaloliddin Polvanov**

Lecturer

National University of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Khanate of Khiva, demography, historical sources, V. Lobachevsky, archival documents, population census, historical demography.

**Received:** 06.05.25

**Accepted:** 08.05.25

**Published:** 10.05.25

**Abstract:** This article explores the historical and demographic significance of the 1910 population census conducted in the Khanate of Khiva under the leadership of Russian Imperial official V. Lobachevsky. Based on archival documents, it analyzes the process of compiling the census data, its content, reliability as a historical source, and potential for scholarly use. The study utilizes the methodology of historical demography to present a statistical description of the socio-economic conditions in Khiva at the turn of the 20th century.

## XIVA XONLIGIDA 1910 YILDA O‘TKAZILGAN AHOLI RO‘YXATI MA’LUMOTLARI HUJJATLARINING TAVSIFI

**Jaloliddin Polvanov**

O‘qituvchi

O‘zbekiston Milliy universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so‘zlar:** Xiva xonligi, demografiya, tarixiy manbalar, V. Lobachevskiy, arxiv hujjatlari, aholi ro‘yxati, tarixiy demografiya.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada 1910 yilda Xiva xonligida Rossiya imperiyasi vakili V. Lobachevskiy boshchiligidagi o‘tkazilgan aholi ro‘yxatining tarixiy-demografik ahamiyati tahlil qilinadi. Arxiv hujjatlari asosida ro‘yxatning shakllanish jarayoni, undagi ma’lumotlarning mazmuni, manba sifatida ishonchliligi va foydalanish imkoniyatlari yoritiladi. Maqola tarixiy demografiya fanining asosiy uslublariga tayanib, Xiva xonligidagi ijtimoiy-iqtisodiy

holatni aks ettiruvchi statistik ko'rsatkichlarni tavsiflaydi.

## ОПИСАНИЕ ДОКУМЕНТОВ ПЕРЕПИСИ НАСЕЛЕНИЯ, ПРОВЕДЁННОЙ В ХИВИНСКОМ ХАНСТВЕ В 1910 ГОДУ

**Жалолiddин Полванов**

*Преподаватель*

*Национального университета Узбекистана*

*Ташкент, Узбекистан*

### О СТАТЬЕ

|                        |                                                                                                                                         |                   |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                               |
|------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Ключевые слова:</b> | Хивинское ханство, демография, исторические источники, В. Лобачевский, архивные документы, перепись населения, историческая демография. | <b>Аннотация:</b> | В статье рассматривается историко-демографическое значение переписи населения, проведённой в Хивинском ханстве в 1910 году под руководством представителя Российской империи В. Лобачевского. На основе архивных источников анализируется процесс составления списков, содержание статистических данных, их достоверность и возможности использования. Работа основывается на подходах исторической демографии и раскрывает социально-экономическое положение ханства на рубеже XIX–XX веков. |
|------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|

Turli davrlardagi davlatlar ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotini anglash, bu sohalarni rivojlantirish hamda amalga oshiriladigan islohotlar asosini belgilash uchun mamlakatdagi haqiqiy sharoitni bilmoq kerak. Buni esa davlat tomonidan to'g'ri olib borilgan statistik ma'lumotlar, jumladan, aholini ro'yxatdan o'tkazish orqali amalga oshirish mumkin. Bunday ma'lumotlar aholishunoslik (demografiya) fani uchun ham xizmat qiladi.

Masalan, XIX asr oxiri – XX asr boshlari Xiva xonligidagi ijtimoiy-tarixiy sharoitni har jihatdan haqqoniy tasavvur qilishimizda, bu davrdagi demografik jarayonlarni o'rganishda o'sha zamonda to'plangan statistik ma'lumotlar alohida ahamiyat kasb etadi. Ularni tadqiq qilishda bizga o'tmishdagi demografik jarayonlarni tadqiq etuvchi tarixiy demografiya fani yutuqlari yordam berishi mumkin. "Tarixiy demografiya" yo'nalishi demografiya fanining tarkibiy qismi bo'lib, o'ziga xos xususiyatlarga ega. Zamonaviy jamiyatdagi mavjud aholiga oid statistik ma'lumotlarni to'plash unchalik qiyinchilik tug'dirmaydi. Biroq o'tmishdagi aholi tarkibi va miqdorini o'rganish bir muncha murakkabliklarga ega. Davrlar o'tishi bilan aholining tabiiy jarayonda qarishi va dunyodan o'tishi, avlodlar almashinuvi bilan aholishunoslikka xizmat qilishi mumkin bo'lgan ko'plab faktlar yo'qolib ketadi [11: 107]. Shu sababdan tarixiy demografiya tadqiqot olib borilayotgan real vaqtdan ancha avval, masalan, bir necha asrlar oldin qayd etilgan yoki maxsus to'planib, turli manbalarda keltirilgan faktlar bilan ishlaydi. Ularni o'z

davri va bunday faktlarga ega manbalar xususiyatlaridan kelib chiqib, tavsif va tahlil etadi. Shulardan kelib chiqqan holda, tarixiy demografiya fani turli birlamchi manbalardagi (qo'lyozmalar, arxiv hujjatlari...) faktlarga suyanib, aholi sonini o'rganish, uning migratsiya va emigratsiyasi, tug'ilish va dunyodan o'tish darajasini aniqlash bilan shug'ullanadi.

O'tmishda aholi va uning turmush tarzi bilan bog'liq jihatlarni hisob-kitob qilish, sistemali tarzda qayd etib borish an'anasi, masalan, O'rta Osiyoda, hozir biz odatlangan statistik ma'lumotlar to'plash ko'rinishida, mavjud bo'lmagan. Rossiya imperiyasi davriga kelibgina statistik hisoblashlar sistemali tarzda olib borila boshlandi [1: 8]. Sharqdagi aholi miqdori va tarkibiga oid statistik ma'lumotlar esa, nisbatan tarqoq yoki umumiyroq tarzda mavjud bo'lgan.

Masalan, XIX asrda Xiva xonligi (1804–1920) markaziy rayonlaridagi xonadonlar hisobi, taxminlar bo'yicha, Sayyid Muhammad hukmronligi (1856–1865) davrida erkaklarni harbiy xizmatga sarboz-askar sifatida olish maqsadi bilan o'tkazilgan. 1873-yili Xivani bosib olinishida ishtirok etgan rus sharqshunosi A.L.Kun ruslar kelgungacha bo'lgan vaqtda Xiva xonligida aholini xonadonlar soniga qarab hisobdan o'tkazishni ro'yxatga olishning o'ziga xos uslubi sifatida baholagan [4: 32].

Shu jihatdan olib qaraganda, Turkiston general-gubernatorligi (1867–1917) territoriyasidan tashqarida, O'rta Osiyoning Rossiya tasarrufiga to'liq o'tmagan hududlarida (Xiva va Buxoro xonliklarida) ham Chor Rossiyasi ma'muriyati aholini muayyan bir darajada ro'yxatdan o'tkazish bilan shug'ullangan. Masalan, Buxoro amirligiga (1747–1920) qarashli territoriyalarda Rossiya harbiylari tomonidan, aftidan, harbiy maqsadlar uchun statistik materiallar to'plangan [5: 400; 7; 8: 29-51; 10: 380].

XIX asr oxirlaridan Xiva xonligi hududida rus ma'muriyati tomonidan aholini ro'yxati o'tkazila boshlanganligi O'rta Osiyo tarixiy demografiyasi uchun zarur ma'lumotlar berishi mumkin. Ayniqsa, bu ma'lumotlarni Xorazm Xalq Respublikasi (1920–1925) va 1920-yillarda O'rta Osiyoda milliy davlat chegaralanishi bo'yicha ishlagan komissiyalarning statistik hisob-kitoblari bilan solishtirib o'rganish XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Xiva xonligi hududidagi aholi demografiyasi haqida aniqroq xulosalar chiqarishga imkon beradi.

Bunda manba sifatida qo'lyozma fondlari va arxivlarda saqlanuvchi, masalan, Xivadagi masjidlar hamda ularga qatnovchilar ro'yxati [2] yoki aholidan olingan soliqlar (solg'ut) haqidagi turli ma'lumotlar [4: 65-96; 25], dehqonlar [26] va navkarlar [4: 156-197] ro'yxatlari kabi hujjatlar tarixiy demografiyaga xizmat qilishi mumkin.

Arxiv manbalarining guvohlik berishicha, Xiva xonligi 1873-yili Rossiyaga vassal bo'lgandan keyin uning hududida bir necha bor aholi ro'yxati o'tkazilgan hamda xonlikdagi real iqtisodiy ahvolni bilish va undan foyda olish maqsadida maxsus komissiyalar xonlik hududida

bir nycha marta faoliyat olib borganlar. Mazkur ishlar Xiva xonligidagi haqiqiy ahvolni o'rganib, mavjud sharoitni yaxshilash uchun islohotlar [28: 10] o'tkazish rejasini tuzish, ularni bajarishni taxtga yangi o'tirgan Isfandiyorxonga (1910–1918) yuklash [27: 64], islohot xarajatlarini xonlikning o'zidan chiqarib, transport yo'llarini yaxshilash natijasida imperiya markaziga ko'proq xomashyo va boyliklarni tashib ketish hamda kelajakda xonlik hududini Rossiya imperiyasi tarkibiga batamom qo'shib yuborish uchun amalga oshirilgan [9: 17, 31]. Bunday ro'yxatlarni tuzish ortida Rossiya imperiyasining siyosiy va iqtisodiy manfaatlari mavjud edi.

Bular jumlasiga 1891-yili podpolkovnik Stetkevich boshchiligida, 1902 yili esa kapitan V.Girshfeld rahbarligida Xiva xonligida o'tkazilgan aholi hisobini misol qilib ko'rsatish mumkin [3; 13: 1-3]. Biroq mazkur statistik ma'lumotlar to'g'risida Turkiston general-gubernatorligi Sirdaryo viloyatining Amudaryo bo'limi boshlig'i general-mayor Glushanovskiyning Turkiston general-gubernatori general-leytenant A.V.Samsonov nomidan Xiva xoniga 1910-yil 15-aprelda yozgan xatida eslatilsa-da, lekin O'zbekiston respublikasi markaziy davlat arxividan (bundan keyn – O'zR MDA) ular to'plagan ma'lumotlarni topa olmadik. Ko'rsatilgan xatda Xiva xonidan polkovnik V.Lobachevskiy va uning hamrohlariga har tomonlama yordam berilishi alohida so'ralgan. Xatda yana 1891-yilda podpolkovnik Stetkevich va 1902-yilda V.Girshfeld boshlagan ishni V.Lobachevskiy davom etkazishi, otliq uchta kazak bilan 1910-yil 19-apreldan topshiriqni bajarishga kirishishi qayd qilingan. Bunda barcha mansabdorlar, viloyat hokimlari va qishloq-ovul oqsoqollari ularga yordam berishi kerak edi [13: 1-3].

Xiva xonligi aholisini 1910-yili ro'yxatdan o'tkazish ishiga V.Lobachevskiy boshchilik qilgan [6]. Mazkur ro'yxat hozirgi kunda O'zR MDA 125-fondida "Xiva xonligi devonxonasi hujjatlari" nomi ostida, 526-537-ishlarda saqlanadi [12; 13; 14; 15; 16; 17; 18; 19; 20; 21; 22; 23; 24]. Bu ma'lumotlar nisbatan ishonchli hisoblanadi. Sababi O'zR MDA ma'lumotlarida Amudaryo bo'limi boshlig'ining Xiva xoniga yozgan bir nechta xatida statistik ma'lumotlarning qanchalik haqqoniy ekanligini tasdiqlash qayta-qayta so'ralgan. Masalan, uning 1910-yil 2-iyundagi 3912-raqamli xati, 1910-yil 8-iyundagi 4943-raqamli va 1910-yil 10-noyabrdagi 8449-xatlarini ko'rsatishimiz mumkin [13: 3-6, 71]. V.Lobachevskiy boshchiligida Xiva xonligida o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish bilan bog'liq ma'lumotlarni territoriya va hujjat xarakteriga ko'ra bir necha guruhlariga ajratishimiz mumkin:

1. Xiva shahri va uning atrofidagi aholi punktlaridagi aholi ro'yxati bo'yicha statistik ma'lumotlar. Jami 6 ta ish, 1517 varaq [16; 17; 18; 19; 20; 21].

2. Ko'hna Urganch shahri va uning atrofi aholi punktlaridagi aholi ro'yxati bo'yicha statistik ma'lumotlar. Jami 3 ta ish, 718 varaq [22; 23; 24].

3. Xiva xonligidagi Pitnak shahri va uning atrofi aholi punktlaridagi aholi ro'yxati bo'yicha statistik ma'lumotlar. Bitta ish, 221 varaq [14].

4. Xiva xonligidagi qozoqlar aholisi ro'yxati. Bitta ish, 236 varaq [15].

5. Umumiy va yakuniy hisob-kitob materiallari. Ikkita ish, jami 201 varaq [13;14].

Mazkur ma'lumotlar o'troq ahliga tegishli bo'lib, arxiv hujjatlarida muayyan jadvallarda, eski o'zbek yozuvida o'z aksini topgan. Masalan, ulardan biri – Xiva xonligidagi Pitnak shahri va uning atrofidagi aholi punktlaridagi aholi ro'yxati bo'yicha statistik ma'lumotlarga ega hujjatni quyidagicha tavsiflash mumkin: hujjat rus qog'ozidan tayyorlangan daftarga yozilgan. Muqovasi kartondan. Sahifalar ikki joydan ip bilan bir-biriga tikilgan. Varaqlar 250 mm x 160 mm hajmga ega. Barcha matnlar arab grafikasiga asoslangan eski o'zbek tilida mayda va xunuk yozuvda bitilgan. Siyohi ko'k rangda. Daftar 335 betdan iborat. Arxiv tomonidan belgilangan hajm – 221 varaq. Bunda bir varaqlarning oldi va orqasi bitta birlik bilan ko'rsatilgan. Shunga ko'ra daftar 442 betdan tashkil topgan. Daftarning o'zida arab yozuvida ko'rsatilgan 335 bet hajmi bilan zamonaviy, arxiv tomonidan ko'rsatilgan 442 bet orasidagi tafovut daftardagi betlarni belgilashdagi o'z davri chalkashliklari, ba'zi betlarni xato raqamlashdan kelib chiqqan bo'lishi mumkin.

Daftardagi ma'lumotlarning barchasi jadvalda ifodalangan. Jadval 13 ustunga bo'lingan. Ustunlarda arab alifbosidagi matnlarni ifodalash uslubiga mos tarzda ma'lumotlar o'ngdan chapga qarab keltirilgan.

1-ustunda “no'mrai flanshet” - “planesht nomeri” birikmasi ostida raqamlar ba'zida tartib bilan berilgan, ammo bu tartibdagi ketma-ketlik tez-tez buzilib turadi, balki bu raqamlar boshqa bir umumiy ro'yxatdan olingan bo'lishi mumkin. Shunga ko'ra mazkur daftarni boshqa bir katta ro'yxatning bir qismi deb qarash mumkin bo'lar. 2-ustunda “no'mrai kopiya”- “kopiya nomeri” nomi ostida daftarda keltirilgan ma'lumotlar ketma-ketlikda berilgan bo'lib, 1-betda 1 raqami bilan boshlanib, 335-betda 3610 raqami bilan yakunlanadi. Ya'ni, daftarda 3610 ta xo'jalik haqida ma'lumotlar keltirilganligini anglatadi. 3-ustun “masjid qavmi” deb atalib, unda xo'jalik a'zolari qatnaydigan masjid nomi keltirilgan. Chunki Xiva xonligida masjid qavmi eng kichik ma'muriy-hududiy bo'linish birligi hisoblangan. Agar bir necha xo'jalik a'zolari bitta masjidga qatnagan bo'lsalar, yuqorida keltirilgan masjid nomiga ishora qilinib, “masjidi mazkur” deb ketilgan. 4-ustunda “Ismi va laqabi va sheriklari” nomi ostida xo'jalikdagi oila boshlig'i bo'lgan erkak ismi uning otasi ismi hamda aka-ukalari ismlari bilan birgalikda berilgan. Ba'zi xo'jaliklarda bir erkak ismi keltirilgan bo'lsa, ba'zilarida xo'jalik rahbari bo'lgan erkak va uning o'ndan ortiq aka-ukalari ismi berilgan. 5-ustunda “desyatin”, 6-ustunda esa “sarjin”, 7-ustunda “tanob”, 8-ustunda “gaz” so'zlari ostida xo'jalikka qarashli yerlarning o'lchovlari ko'rsatilgan.

9-ustunda “so‘m” va 10-ustunda “tiyin” so‘zlari orqali xo‘jalikning daromadi miqdori ko‘rsatilgan. 11-ustunda “obxo‘ri” so‘zi tagida xo‘jalikka qarashli yerlarning sug‘orish manbasi (ariq, daryo) nomi berilgan. 12-ustunda yerning mulk yeri yoki vaqf yeri ekanligiga oid ma‘lumot keltiriladi. 13-ustundagi “fartav (partav)” so‘zi ekin ekilmaydigan yerlarni anglatadi.

Urganch va Xiva shaharlari va ular atrofidagi aholi punktlariga oid aholi ro‘yxatlaridagi ma‘lumotlar ham xuddi shu tartibda berilgan. Lekin ko‘chmanchi hayot tarziga ega qozoq, qoraqalpoq va turkman aholisi ro‘yxatlari bunday jadvallar ko‘rinishda emas. Ularda faqat urug‘ nomi va shu uruqqa mansub xonadonlardagi oila boshlig‘i bo‘lgan erkaklar ismi, ular soni va yashagan joyiga doir ma‘lumotlarga keltirilgan. Umumiy ro‘yxatlar esa barcha daftarlarda keltirilgan statistik ma‘lumotlar yaxlit miqdorini ko‘rsatishi bilan ajralib turadi.

Biz yuqorida tavsif qilganimiz daftardagi ma‘lumotlar Xiva xonligidagi o‘troq aholiga tegishli. Ularni umumlashtirib, jadvalda sxematik tarzda quyidagicha aks ettirdik:

#### 1-jadval

1910-yilda V.Lobachevskiy rahbarligida Xiva xonligidagi o‘troq aholi ro‘yxatidagi ma‘lumotlar uchun talablar [14; 16; 17; 18; 19; 20; 21]

| No‘mrai<br>flanshet | No‘mrai<br>kopiya | Masjid<br>qavmi | Ismi va<br>laqabi va<br>sheriklari | Desyatn | Sarjin | Tanob | Gaz | So‘m | Tiyin | Obxo‘ri | Mulk,<br>vaqf | Fartav<br>(partav) |
|---------------------|-------------------|-----------------|------------------------------------|---------|--------|-------|-----|------|-------|---------|---------------|--------------------|
|                     |                   |                 |                                    |         |        |       |     |      |       |         |               |                    |
|                     |                   |                 |                                    |         |        |       |     |      |       |         |               |                    |

Quyida shu jadvalda qayd qilingan talablar asosida 1910-yilda o‘tkazilgan aholi ro‘yxati asl nusxasidan misollar keltiramiz:

#### 2-jadval

1910-yilda Pitnak va uning atrofi aholisining ro‘yxatidan ayrim namunalar [14: 6, 206, 221]

| No‘mrai<br>flanshet | No‘mrai<br>kopiya | Masjid<br>qavmi                       | Ismi va laqabi<br>va sherigi                                                                                                            | Desyatn | Sarjin | Tanob      | Gaz | So‘m | Tiyin | Obxo‘ri     | Mulk,<br>vaqf | Far-<br>tav<br>(par-<br>tav) |
|---------------------|-------------------|---------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|--------|------------|-----|------|-------|-------------|---------------|------------------------------|
| 448                 | 1                 | Yusuf<br>dorg‘a                       | Amonboy ibn<br>Mullo<br>Bobojon<br>Aqsoqol,<br>sherigi<br>Rahimboy<br>ibn Bobojon<br>Davlatboy<br>va Nazarboy<br>va Otajon<br>Abulniyoz |         | 1810   | 2<br>tanob | 40  | 2    | 1     | Oq<br>olang | Vaqf,<br>mulk |                              |
| 71                  | 209               | Masjidi<br>Muxam-<br>madamin<br>Xo‘ja | Ro‘ziboy<br>so‘fi va<br>Jabborberdi<br>va<br>Muhammad<br>Ya‘qub va<br>Mengliboy                                                         | 800     |        | 3/4        | 500 |      | 89    | Oq<br>olang | mulk          |                              |

|     |      |                            |                                                                                                        |  |      |             |     |   |    |              |      |       |
|-----|------|----------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------|--|------|-------------|-----|---|----|--------------|------|-------|
|     |      |                            | ibn Sayyidniyoz                                                                                        |  |      |             |     |   |    |              |      |       |
| 578 | 3610 | Masjidi Muxammadamin Xo'ja | Mullo Muhammadniyoz ibn Boltaboy sherigi Jumaniyoz va Pahlavonniyoz valadi on mazkur (ya'ni, Boltaboy) |  | 2150 | 2 tanob 1/4 | 500 | 2 | 39 | Ulug' qangli | mulk | ad-ra |

1910 yildagi aholi ro'yxatining umumiy jadvalidan namuna

3-jadval<sup>1</sup>

Pitnak bekligi / Питнякское бекство [15: 1]

|                                                                                                      |                                                                            |                                                                             |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------|
| 1000 uylik <sup>2</sup> , har uylikda 7 jon, joylidan o'rus fuqarolaridin boshqa                     | 1000 дворов в каждом дворе по 7 душ, кроме русских подданных жителей       | 1000 dvorov v kajdom dvore po 7 dush, krome russkix poddannyx jiteley       |
| Axyo <sup>3</sup> va adra <sup>4</sup> yerlari 8000 tanob                                            | Обрабатываемый и необрабатываемые земли 8000 танабов                       | Обрабатываемы и необрабатываемые земли 8000 tanabov                         |
| Xalqi o'zbek va shayx va arab                                                                        | Народонаселение узбеки, шейхи, арабы                                       | Narodonaseleniye uzbeki, sheyxi, araby                                      |
| Hokimi Ollobergan noib Egamberdi o'g'li, yoshi o'ttuz besh, o'tgan yil otasi o'rnig'a hokim bo'lg'an | Бек Аллаберган наиб Эгамберди Наиров, 35 лет, в прошлом году на место отца | Bek Allabergan naib Egamberdi Naibov, 35 let, v proshlom godu na mesto otsa |

4-jadval

Pitnak tobein fuqarolari [13: 166]

|    |                  |                       |
|----|------------------|-----------------------|
| 1. | Uyliklari        | 1000 uylik            |
| 2. | Axyo yerlari     | 5000 tanob            |
| 3. | Adra yerlari     | 3000 tanob            |
| 4. | Otlari           | 700 adad <sup>5</sup> |
| 5. | Ho'kiz-sigirlari | 1000 adad             |
| 6. | Eshaklari        | 500 adad              |
| 7. | Qo'ylari         | 10 000 adad           |
| 8. | Tuyalari         | 300 adad              |
| 9. | Xalqlari         | O'zbek, arab va shayx |

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Xiva xonligida 1910 yili o'tkazilgan statistik hisoblar xonlikdagi tarixiy demografiyani o'rganishda muhim manba sifatida xizmat qilishi mumkin. Mazkur axborot tarzidagi maqolamiz Xiva xonligidagi tarixiy demografiyani o'rganish

<sup>1</sup> Mazkur javdaldagi eski o'zbek yozuvidagi qismi kirill harflariga o'girib berildi. O'zbekcha matn bilan yonma-yon keltirilgan ruscha matn hujjatning o'zidagidek, aynan qoldirildi. Jadvalda faqat Pitnak qal'asiga oid ma'lumotlar keltirilgan.

<sup>2</sup> Uylik – xo'jalik yoki xonadon.

<sup>3</sup> Axyo yerlar – sug'oriladigan yerlar.

<sup>4</sup> Adra yerlari – sug'orilmaydigan yerlar.

<sup>5</sup> Adad – son, miqdor, nafar.

yoʻnalishida dastlabki izlanishimiz samarasi boʻlib, mazkur masalani endilikda atroflicha tadqiq etish tarixshunoslar va sharqshunoslar oldida turgan muhim vazifa deb hisoblaymiz.

### Adabiyotlar:

1. Ата-Мирзаев О., Гентшке В., Муртазаева Р. Узбекистан многонациональный: историко-демографический аспект. Ташкент: Абу Али Ибн Сино, 1998.
2. Болтаев А. Хива масжидлари ва уларга қарашли соҳибхоналар. Ўзбекистон республикаси ФА шарқшунослик институти-1, №7795
3. Гиршфельд В., Галкин М.Н. Военно-статистическое описание Хивинского оазиса. Часть II. Ташкент, 1903.
4. Иванов П.И. Архив хивинских ханов XIX в. Исследование и описание документов с историческим введением. Ленинград, 1940.
5. Капитан Васильев. Статистические материалы для описания Бухары. Бекство Шерабадское и часть Байсунского // Сборник географических, топографических и статистических материалов по Азии. Выпуск 57. Санкт-Петербург, 1894.
6. Лобачевский В. Хивинский район. Ташкент, 1912.
7. Маев Н.А. Очерк Гиссарского края. Очерки горных бекств Бухарского ханства // Материалы для статистики Туркестанского края. Выпуск V. Санкт-Петербург, 1879.
8. Очилдиев Ф. Сурхон воҳаси бекликларидаги ижтимоий-сиёсий ва иқтисодий ўзгаришлар. Тошкент, 2008.
9. Полвонов Н. Хоразмдаги ижтимоий ҳаракатлар ва сиёсий партиялар тарихи (1900–1924 йиллар). Тарих фанлари ном... дис. Тошкент, 2005.
10. Полковник Галкин. Военно-статистический очерк средней и южной частей Сурхандаринской долины // Сборник географических, топографических и статистических материалов по Азии. Выпуск 57. Санкт-Петербург, 1894.
11. Шелестев Д.К. Историческая демография. Москва: Высшая школа, 1987.
12. ОʻzR MDA. 125-fond, 1-roʻyxat, 526-ish.
13. ОʻzR MDA. 125-fond, 1-roʻyxat, 527-ish.
14. ОʻzR MDA. 125-fond, 1-roʻyxat, 528a-ish.
15. ОʻzR MDA. 125-fond, 1-roʻyxat, 528-ish.
16. ОʻzR MDA. 125-fond, 1-roʻyxat, 529-ish.
17. ОʻzR MDA. 125-fond, 1-roʻyxat, 530-ish.
18. ОʻzR MDA. 125-fond, 1-roʻyxat, 531-ish.
19. ОʻzR MDA. 125-fond, 1-roʻyxat, 532-ish.
20. ОʻzR MDA. 125-fond, 1-roʻyxat, 533-ish.
21. ОʻzR MDA. 125-fond, 1-roʻyxat, 534-ish.
22. ОʻzR MDA. 125-fond, 1-roʻyxat, 535-ish.
23. ОʻzR MDA. 125-fond, 1-roʻyxat, 536-ish.
24. ОʻzR MDA. 125-fond, 1-roʻyxat, 537-ish.
25. ОʻzR MDA. 125-fond, 2-roʻyxat, 382-399-ishlar
26. ОʻzR MDA. 125-fond, 2-roʻyxat, 496-498, 517-521-ishlar.
27. ОʻzR MDA. 2-fond, 1-roʻyxat, 291-ish.
28. ОʻzR MDA. 2-fond, 1-roʻyxat, 375-ish.